

## **PARKENT TUMANI QISHLOQLARI TOPONIMIYASI VA ULARNING TABIIY-GEOGRAFIK JOYLASHUVI**

***Annotatsiya:** Ushbu ilmiy maqolada Parkent tumani hududida joylashgan qishloqlarning toponimiyasi va ularning tabiiy-geografik joylashuvi masalalari atroflicha tahlil qilingan. Toponimlar – bu faqat geografik joy nomlari emas, balki xalqning tarixiy xotirasi, madaniy an’analari va tabiat bilan o‘zaro munosabatini ifodalovchi muhim ma’lumot manbaidir. Tadqiqot davomida tuman tarkibidagi o‘nlab qishloq nomlarining kelib chiqishi, lug‘aviy ma’nosi, fonetik shakli, tarixiy ildizlari hamda ularni shakllantirishda ishtirok etgan ijtimoiy, iqtisodiy va tabiiy omillar chuqur o‘rganildi.*

*Ushbu tadqiqot natijalari mahalliy geografik ta’limda, hududiy rivojlanish rejalashtirishida va turizm sohasida qo‘llash uchun amaliy ahamiyatga ega bo‘lib, Parkent tumani bo‘yicha toponimik fondni boyitadi.*

***Kalit so‘zlar:** Geografiya, toponimika, tarix, Parkent, toponimik tadqiqotlar, GAT*

*Мирилсломов М.М.*

*Студент Чирчикского государственного педагогического*

*университета*

<https://orcid.org/0009-0000-2659-4693>

## **ТОПОНИМИЯ СЕЛ ПАРКЕНТСКОГО РАЙОНА И ИХ ПРИРОДНО-ГЕОГРАФИЧЕСКОЕ ПОЛОЖЕНИЕ**

***Аннотация:** В данной научной статье комплексно анализируются вопросы топонимии сел, расположенных на территории Паркентского района, и их природно-географическое положение. Топонимы являются не только географическими топонимами, но и важным источником*

информации, выражающим историческую память, культурные традиции народа и его взаимодействие с природой. В ходе исследования были глубоко изучены происхождение, лексическое значение, фонетическая форма, исторические корни десятков названий сел района, а также социальные, экономические и природные факторы, участвовавшие в их формировании.

Результаты данного исследования имеют практическое значение для использования в местном географическом образовании, планировании регионального развития и туризме, а также обогащают топонимический фонд Паркентского района.

**Ключевые слова:** География, топонимия, история, Паркент, топонимические исследования, GAT

**Mirislomov M.M**

**Student of Chirchik State Pedagogical University**

<https://orcid.org/0009-0000-2659-4693>

## **TOPONYMY OF VILLAGES OF PARKENT DISTRICT AND THEIR NATURAL-GEOGRAPHICAL LOCATION**

**Annotation:** *This scientific article comprehensively analyzes the issues of toponymy of villages located in the territory of Parkent district and their natural-geographical location. Toponyms are not only geographical place names, but also an important source of information expressing the historical memory, cultural traditions of the people and their interaction with nature. During the study, the origin, lexical meaning, phonetic form, historical roots of dozens of village names in the district, as well as the social, economic and natural factors involved in their formation, were studied in depth.*

*The results of this study are of practical importance for use in local geographical education, regional development planning and tourism, and enrich the toponymic fund of Parkent district.*

**Keywords:** *Geography, toponymy, history, Parkent, toponymic research, GAT*

## **KIRISH**

Toponimika – bu geografik joy nomlarini o‘rganadigan fan sohasi bo‘lib, u faqat joy nomlarini emas, balki ular orqali millatning tarixini, madaniyatini, dunyoqarashini ham yoritadi. Har bir toponim, xususan, qishloq nomlari xalqning tabiat bilan o‘zaro aloqasi, tarixiy voqealarga munosabati, o‘zining ijtimoiy hayotini qanday ifoda etganini bildiradi. Shuning uchun toponimlar geografik hududni o‘rganishda muhim madaniy-geografik indikator sanaladi.

Mazkur ilmiy maqolaning predmeti — Parkent tumani qishloqlarining toponimiyasini chuqur o‘rganish, ularning nomlanishiga sabab bo‘lgan tabiiy, tarixiy va madaniy omillarni aniqlash, shuningdek, ushbu qishloqlarning tabiiy-geografik joylashuvi bilan toponimlar o‘rtasidagi bog‘liqlikni tahlil qilishdan iborat.

Tadqiqot obyekti sifatida Toshkent viloyati Parkent tumani tarkibidagi barcha qishloqlar, ularning geografik koordinatalari, relyefi, suv-havo sharoitlari, o‘simlik va hayvonot dunyosi, tarixiy rivojlanish bosqichlari hamda kartografik materiallar xizmat qiladi.

Maqolada kompleks yondashuv – ya’ni tarixiy-geografik, lingvistik-toponimik, kartografik va GAT (Geografik axborot tizimlari) asosidagi analizlar orqali toponimlar chuqur tahlil qilinadi. Shu bilan birga, joy nomlarining zamonaviy geografik makonda qanday ro‘l o‘ynashi ham e’tiborga olinadi. Har bir toponimning kelib chiqishi, tarixi va zamonaviy ahamiyati kontekstida yondashiladi.

## **MAVZUNING DOLZARBLIGI**

Toponimik tadqiqotlar nafaqat nazariy-geografik bilimni chuqurlashtiradi, balki mahalliy identitetni mustahkamlash, tarixiy merosni saqlash, ekologik va turistik resurslarni to‘g‘ri rejalashtirishda ham katta ahamiyatga ega. Bugungi kunda Parkent tumani turizm, ekologik boshqaruv va hududiy rivojlanish bo‘yicha muhim tumanlardan biri sifatida shakllanmoqda. Shu nuqtayi nazardan,

bu hududdagi qishloqlar toponimiyasini o'rganish dolzarb ilmiy va amaliy ahamiyatga ega.

### **MAVZU BO'YICHA QISQACHA ADABIYOTLAR TAHLILI**

Mahalliy, ya'ni kichik hududiy birliklarning turli davrlardagi tarixini o'rganishning lozimligini jahon tajribasi ham isbotlab bera oladi. Misol uchun, Parkent tumanini olaylik. Toshkent vohasining Toshkent viloyati qismiga kiruvchi va Toshkent shahriga nisbatan sharqda joylashgan bu tumanning ham o'ziga xos tarixi mavjud. Tumanning va undagi qishloqlarning nomlanish tarixi, ya'ni, toponomikasi, tumanda insonlar qaysi davrdan boshlab yashab kelayotganligi, tarixiy davrlardagi ahamiyati va yangi davr tarixidagi o'zni haqida ham bir qator olimlar o'z tadqiqot ishlarini olib borganlar yoki tadqiqot ishlarining bir qismida ta'kidlab o'tganlar. S. Xusomiddinov, M.Shermatov, S.Qorayev, A. Hikmatov kabilar shular jumlasidandir. S. Xusomiddinov va M.Shermatovlar o'zlarining tadqiqot ishlarida tumaning geografik holati, tarixi va toponomikasi haqida atroflicha ma'lumot berib o'tishgan. S. Qorayev esa, o'z tadqiqot ishi davomida yurtimizning turli joylarining toponimlari qatorida Parkent toponimlari haqida ma'lumot berib o'tishgan. A. Hikmatov esa, tumanning yangi davrdagi holati haqida alohida to'xtalgan.

### **MUHOKAMA VA NATIJALAR**

Parkent tumani Parkent shahri va Boshqizilsoy, Bo'ston, Zarkent, Nomadanak, So'qoq, Hisorak, Changi, Qoraqalpoq qishloq fuqarolar yig'inidan iborat. Bu 9 ta qishloq ham o'z navbatida mahallalardan tarkib topgan. Quyida ularning nomlari va toponomikasi haqida ma'lumotlar berib o'tamiz.

**Parkent shahri.** Parkent tumanining markazi hisoblanib, Toshkent shahridan 48 km sharqda joylashgan. Umumiy yer maydoni 1648 gektarni tashkil etadi. Hududning asosiy aholisini o'zbeklar tashkil etadi. Bundan tashqari bu hududda tojiklar, qozoqlar, qirg'izlar, qrim tatarlari, qozon tatarlari ham yashaydi. Tuman markazida "Parkent dehqon bozori", hokimiyat binosi, FHDYO binosi, Markaziy shifoxona, Tuman madaniyat va ma'naviyat markazi, 29-sonli Bolalar musiqa va san'at maktabi, Prezident maktabi va tumandagi

yagona xususiy maktab “Imkon school” va boshqa muhim ahamiyatga ega bo‘lgan markazlar joylashgan. O‘z navbatida tuman markazi bir qancha mahallalardan iborat. Parkent shahrida jami 19 ta mahalla joylashgan. Bular: Xo‘ja, O‘choq, Soy, Mozorhoji, Qo‘liche, Surxi, Bulqboshi, Bo‘rsiliq, Samarobod, Navro‘z, Beshkappa, Oybek, Bodomtepa, Qo‘shshukur, Gulbog‘, Objuvoz, Istiqlol, Cho‘qqayma mahallalari hisoblanadi. Ulardan 6 tasi Parkentsoyning o‘ng qirg‘og‘ida joylashgan. Bular:

- Soy
- O‘choq
- Xo‘ja
- Qo‘liche
- Mozorhoji
- Surxi mahallalaridir.

**Soy mahallasi.** Soy mahallasi Parkentsoyning o‘ng qirg‘og‘ida joylashgan bo‘lib, Qo‘liche va O‘choq MFY lar hamda Changi qishlog‘i bilan chegaradosh. Mahalla 4 ta ko‘chadan iborat. Bular: Tanbalak, Tanbalak-2, Hamid Olimjon va Zarbuloq ko‘chalaridir. Bu ko‘chalarning ayrim qismlari O‘choq MFY hududiga ham tegishli.

“Soy” mahallasining mahalliy aholi orasidagi nomi “Tanbalak”. Hozirda u mahalla hududidagi ko‘chalardan birining nomi sifatida yuritiladi. “Soy” toponimining ma‘nosi barchamizga ma‘lum. Parkentsoyning qirg‘og‘i bo‘ylab joylashganligi uchun shu nom bilan atalganligi ravshan. Ammo mahalliy aholining so‘zlashuv tilida qolib ketgan “Tanbalak” nomining kelib chiqishi haqida aniq bir izoh mavjud emas. Mahalla faollarining so‘zlariga qaraganda, bu kim tomonidan va qachon shu nom bilan atalganligi to‘g‘risida ma‘lumotlar hali mavjud emas.”Ak” toponim yasovchi qo‘shimcha ekanligini inobatga olsak, tanbal nomi nisbat berilgan bo‘lishi mumkin, deb tahmin qilsak bo‘ladi.

**O‘choq mahallasi.** O‘choq mahallasi Parkentsoyninng o‘ng qirg‘og‘ida joylashgan kichik mahalla bo‘lib, hududiy jihatdan Xo‘ja va Soy MFY lar bilan chegaradosh. Mahalla 6 ta ko‘chadan iborat bo‘lib, bular Tanbalak, Hamid

Olimjon, Zarbuloq, O‘zbekiston, Tinchlik va Xo‘jaobod ko‘chalaridir. Yuqorida ta’kidlanganidek, ayrim ko‘chalar, aniqroq qilib aytganda, Tanbalak, Hamid Olimjon, Zarbuloq ko‘chalarining ayrim qismlari Soy MFY hududiga tegishli.

Mahallaning toponomikasi to‘g‘risida qiziq bir rivoyat bor. Mahalla nuroniylarining so‘zlariga qaraganda, muqaddas islom dini yurtimizda tarqala boshlagan kezlari, tahminan VIII asralarda Parkent hududiga sayyidlarning avlodlari bo‘lgan Sayyid ota Bobomochin otalar tashrif buyurishadi. Ular xalqa islomni o‘gatib, Haqni tanitadi va shu sababdan xalq orasida juda katta hurmat va e’tiborga sazovor bo‘lishadi. Kunlardan bir kuni Sayyid ota xalqdan o‘zi va oilasi uchun “o‘choqdekkina” joy so‘raydi va u insonga juda katta yerlar taklif qilinadi. Ammo Sayyid ota soy qirg‘og‘idagi uncha katta bo‘lmagan hududga joylashadi. Va shundan so‘ng Sayyid otaning “o‘choqdekkona“ degan iborasi xalq orasida mashhur bo‘lib, mahalla “O‘choq” nomi bilan ataladi. Mahalla ahlining so‘zlariga ko‘ra, bugungi kunda ham mahallaning aksariyat aholisi Sayyid otaning avlodlaridan hisoblanadi va mahalliy aholi o‘zini “xo‘jalar” deb ta’kidlashadi.

**Xo‘ja mahallasi.** Parkent shahrida joylashgan ushbu mahalla Parkentsoyning o‘ng qirg‘og‘ida joylashgan bo‘lib, huddiy jihatdan Mozorxoji, Qo‘lichi O‘choq va Buloqboshi MFY lar bilan chegaradosh. Mahalla 11 ta ko‘chadan iborat. Bular: Xo‘jaobod, Chamanzor, Ozodlik, Fidokor, Sohil, Hunarmand, Meros, Sohibkor, Ezgulik, Bog‘ichinor va Fayz ko‘chalaridir.

Mahallaning nomlanishi tarixi bo‘yicha xalq orasida shunday hikoya bor. 2017-2022-yilda mahalla oqsoqoli bo‘lgan Parpiyev Bahodir aka bizga bu to‘g‘risida hikoya qilib berdi. Aytishlaricha, islom dini yurtimizda tarqala boshlagach, Parkent tumani hududlariga islom dini arkonlarini yaxshi biladigan Bobo Mochin va Sayyid otalar so‘z yuritayotgan mahalla hududiga kelishgan. Ular mahalliy aholiga Haqni tanitgan va ilm ulashgan. Oxir-oqibat ular Parkentda qo‘nim topib, umrining so‘nggigacha ushbu hududlarda yashab qolishgan. Sobiq mahalla oqsoqoli Parpiyev Bahodir akaning so‘zlariga ko‘ra, o‘sha davrda Parkent aholisi ancha siyrak bo‘lgan, Bobo Mochin va Sayyid

otadek sayyidlar, avliyolar esa Haqqa yaqinlashmoq uchun odamlardan yiroq bo'lishni xohlaganlar. Bugungi kunda har ikki aziz zotlarning qabri ham ayni



shu mahalla hududida joylashgan. Aslini olganda, mahalliy aholi tilida “xo’jalar” deb ataluvchi xalq Xo’ja mahallasida ko’pchilikni tashkil qilmaydi.

### 1-rasm. Xo’ja mahallasi xaritasi<sup>1</sup>

Ammo. yuqorida nomlari zikr qilingan ikki buyuk shaxslar Bobo Mochin va Sayyid otalarining maqbaralari hurmatiga mahalla nomi ”Xo’ja” deb atalgan. Bugungi kunda Bobo Mochin maqbarasining atrofida qabriston va Bobo Mochin nomi bilan ataluvchi jome masjid faoliyat yuritmoqda. Bugungi kunda ushbu masjid qayta tiklanmoqda.

O‘zbekiston Respublikasi Vazirlar Mahkamasining qarori bilan 2019-yil 4-oktyabrda Moddiy madaniy merosning ko‘chmas mulk obyektlari milliy ro‘yxatiga kiritilgan va davlat muhofazasiga olingan<sup>2</sup>.

**Qo’liche mahallasi** tuman markaziy maydonidan nisbatan shimoliy qismda joylashgan va Prakentsoy bilan bevosita tutashmagan. Shimoli g’arbdan Bo’ston qishloq fuqorolar yig’ini tarkibidagi Bo’ston qishlog’i bilan chegaradosh.

<sup>1</sup> Parkent tuman Kadastr agentligi ma’lumotlari asosida tayyorlandi

<sup>2</sup> „Moddiy madaniy merosning ko‘chmas mulk obyektlari milliy ro‘yxatini tasdiqlash to‘g‘risida O‘zbekiston Respublikasi Vazirlar Mahkamasining 2019-yil 4-oktyabrdagi 846-sonli qarori

Mahalla 6 ta ko'chadan iborat. Bular: Fayz, Xokko'za, Sharq guli, Ezgulik, Zarqaynar va Bo'zanjar ko'chalaridir.

Qo'lichi toponimi to'g'risida ikki xil qarash bor. Ba'zilar bu mahalla hududida avval ko'l bo'lgan, aslida "Ko'lichi" deb nomlanishi kerak deyishadi, yana ba'zilar bu hudud tuman markazidan ko'ra pastda joylashgan va atrofi tepaliklar bilan o'ralganligi uchun uzoqdan kaftning ichidek ko'rinishi sababidan Qo'lichi deb nomlangan deb aytishadi.




### 1.1-rasm Qo'lichi mahallasi xaritasi<sup>3</sup>

**Mozorxoji mahallasi** Parkentsoyning o'ng qirg'og'ida joylashgan bo'lib, hududiy jihatdan Surxi, Qo'lichi va Xo'ja mahallalari bilan chegaradosh. Mahalla 6 ta ko'chadan iborat. Bular: Ozodlik, Sohil, Ma'mur, Nurchilar, Buloqboshi va Sag'bon ko'chalaridir.

Mahallaning toponomikasi haqida quyidagicha rivoyat bor. Ushbu rivoyat Xo'ja va O'choq mahallarining tarixi to'g'risidagi rivoyatlarga o'xshaydi. Qachonligi noma'lum bo'lgan asrda mahalla hududiga ilmiy, ziyoli va haj safarini amalga oshirgan inson keladi va shu hududda qo'nim topadi. Mahalliy aholiga o'qish va yozishni o'rgatadi va umrini ustozlikka bag'ishlaydi. Vafot etgandan keyin mahalla hududiga dafn etiladi va hoji inson dafn etilganligi uchun

<sup>3</sup> Parkent tuman Kadastr agentligi ma'lumotlari asosida tayyorlandi

hudud ramziy ravishda Mozorxoji deb atala boshlaydi. Mahalla nuroniylarining soʻzlariga koʻra avvallari uning maqbarasi soyning qirgʻogʻida joylashgan boʻlgan va sel oqizib ketishi natijasida vayron boʻlgan.



1.2-rasm. Mozorhoji mahallasi xaritasi<sup>4</sup>

**Surxi mahallasi** Parkentsoyning oʻng qirgʻogʻida joylashgan boʻlib, hududiyu jihatdan Boyqozon, Mozorxoji va Istiqbol mahallalari bilan chegaradosh.

Mahallaning nomlanish tarixi quyidagicha. Ssurxi mahallasi oʻrnida avvalari koʻpgina tepaliklar boʻlgan va oadmalt bu tepaliklarni surib tekislab joylasha boshlagan. Surilgan tepaliklarga nisbat berilib mahalla nomi Surxi nomi bilan mashhur boʻlib ketgan.



1.3-rasm. Surxi mahallasi xaritasi<sup>5</sup>

<sup>4</sup> Parkent tuman Kadastr agentligi maʼlumotlari asosida tayyorlandi

<sup>5</sup> Parkent tuman Kadastr agentligi maʼlumotlari asosida tayyorlandi

Parkentsoyning chap qirg'og'ida joylashgan mahallalar soni esa 11 ta bo'lib, bular quyidagilardir:

- Bulqoboshi
- Bo'rsiliq
- Samarobod
- Navro'z
- Beshkappa
- Oybek
- Bodomtepa
- Qo'shshukur
- Gulbog'
- Objuvoz
- Istiqbol
- Cho'qqayma
- Quruqsoy

Ushbu mahallalardan ayrimlari haqida quyida ma'lumotlar keltirilgan.

**Bulqoboshi mahallasi** tuman markazidan sharqda va Parkentsoyning o'ng qirg'og'ida joylashgan. Hududiy jihatdan mahalla Oybek, O'choq, Samarobod, Nurobod va Bo'rsiliq mahallalari bilan chegaradosh.

Mahallaning nomi mahalla hududidagi buloqning Parkentning ko'pgina hududlarini suv bilan ta'minlashi hisobiga shunday atalgan. Bu mahallada o'zbeklar bilan bir qatorda qozon tatarlari ham istiqomat qilishadi.




1.4-rasm. Buloqboshi mahallasi xaritasi<sup>6</sup>

**Bo'rsiliq mahallasi** tuman markaziy maydonidan janubroqda joylashgan bo'lib, hududiy jihatdan Qo'shshukur, Beshkappa, Oybek, Buloqboshi, Samarobod va Navro'z mahallari bilan chegaradosh.

Mahallaning toponimaksi haqida mahalliy aholi orasida quyidagi ma'lumotlar bor. Qadimda insonlar ko'chib kelib bu yerlarni o'zlashtirishdan avval bo'rilar gala-gala bo'lib yashagan joy hisoblangan. Dastlabki insonlar shu bo'rilarni ko'rib bu hududga bo'ri silliq ya'ni silliq jungli bo'rilar yashaydigan hudud deb nomlashgan. Shu tariqa bu nom mahalla nomiga asos bo'lgan. Vaqt o'tgan sari bu nom Bo'rsiliq tarzida aytila boshlagan. Ehtimol, hududda bo'rilar emas yovvoyi itlar yashagan bo'lishi ham tahmin qilinadi.

<sup>6</sup> Parkent tuman Kadastr agentligi ma'lumotlari asosida tayyorlandi



**1.5-rasm. Bo'rsiliq mahallasi xaritasi.<sup>7</sup>**

**Objuvoz mahallasi** Parkent tumanining muhim strategik markazida joylashgan bo'lib, mahalla hududida Parkent dehqon bozori, hokimiyat binosi kabi muhim markazlar mavjud. Hududiy jihatdan Gulbog', Oybek, Buloqboshi va Cho'qqayma MFY lar bilan chegaradosh. Mahalla 8 ta ko'chadan iborat. Bular: Iste'dod, Qadriyat, Ichkiqo'rg'on, Bahor, Birdamlik, Rahshon, Do'stlik va Alisher Navoiy ko'chalaridir. Bular orasida Ichkiqo'rg'on ko'chasi ayniqsa diqqatga sazovor bo'lib, bu hududda qadimdan aholi yashab kelgan deb tahmin qilishadi. Tuman hokimiyat binosi ham shu ko'chada joylashgan.

Mahallaning toponomikasi nisbatan yangi davrga borib taqaladi. Mahalla nuroniysi Zahro ayaning ma'lumotlariga ko'ra, mahalla hududida avvallari yog' ishlab chiqaruvchi tegirmon, ya'ni juvoz bo'lgan va kanopdan yog' olingan. Kanop mahalla hududiga Qiziltog' (xalq orasidagi nomi Krasnagorsk) hududidan olib kelingan. Yog' olingach esa qolgan mahsulotdan chorva mollari uchun kepak tayyorlangan. Yog' olish jarayoni o'ta soda tarzda, ya'ni ot va eshak yordamida harakatlantirilib olingan va shu tariqa tumanning yog'ga bo'lgan

<sup>7</sup> Parkent tuman Kadastr agentligi ma'lumotlari asosida tayyorlandi

talabini qondirganligiga nisbat berilib, mahalla nomi Objuvoz deb atala boshlangan.




1.6-rasm. Objuvoz mahallasi xaritasi.<sup>8</sup>

**Beshkapa mahallasi** tumanning markaziy maydonidan janubroqda joylashgan bo'lib, hududiy jihatdan Bodomtepa, Oybek, Bo'rsiliq va Qo'shshukur mahallari bilan chegaradosh.

Mahallaning toponikasi haqida quyidagicha hikoya bor. Mahalla nuroniylarining so'zlariga qaraganda, taxminan 160 yilcha muqaddam bu hududda Mirrajab, Mirsolih, Mirdadaxon, Mirabdulloh va Mirtolib ismli fuqarolarning vaqtincha yashash joyi – beshta kapasi qurilgan. Keyinchalik esa bu kapalar atrofiga aholi uy qurib ko'chib kela boshlagan. Mahalla nomi shundan kelib chiqqanligi ta'kidlanadi.

<sup>8</sup> Parkent tuman Kadastr agentligi ma'lumotlari asosida tayyorlandi



**1.7-rasm. Beshkappa mahallasi xaritasi<sup>9</sup>**

**Quruqsoy mahallasi** tuman markazidan janubroqda joylashgan bo'lib, hududiy jihatdan Bog'bon, Cho'qqayma, Bodomtepa va Qo'shshukur mahallalari bilan chegaradosh.



**1.8-rasm Quruqsoy mahallasi xaritasi<sup>10</sup>**

Mahallaning nomlanish toponimikasi mahlliy aholining so'zlariga ko'ra, avvallari mahlla joylashgan hududda soy o'zani mavjud bo'lgan va u vaqr o'tib

<sup>9</sup> Parkent tuman Kadastr agentligi ma'lumotlari asosida tayyorlandi

<sup>10</sup> Parkent tuman Kadastr agentligi ma'lumotlari asosida tayyorlandi

qurib qolgan. Quruq o‘zan o‘rniga esa aholi joylashgan shu sababdan mahalla nomi Quruqsoy nomi bilan atala boshlangan.

**Boshqizilsoy qishloq fuqarolar yig‘ini.** Uning tarkibiga Navdak, Nevich, Sanganak hamda Shampan qishloqlari kiradi.

**Navdak qishlog‘i** Parkentdan 22 km janubi sharqda Boshqizilsoyning chap sohilida joylashgan. Uning Navdak deb nomlanishi to‘g‘risida ikki xil qarashlar mavjud. Birinchi fikrga ko‘ra Navdak Yangi qishloq ma‘nosini beradi. Nevichga nisbatan keyinroq tashkil topganligini bunga asos sifatida ko‘rsatishadi. Ikkinchi fikrga ko‘ra esa Tojikistonning Nav deb nomlangan qishlog‘idan ko‘chib o‘rnashgan aholi o‘z manzilgohni Navdak deb ataganligi e‘tirof etiladi.

**Nevich qishlog‘i** Parkentdan 20 km janubi sharqda joylashgan Boshqizilsoyning o‘ng sohilida joylashgan. U ancha qadimiy qishloq hisoblanadi. Nevich qishlog‘idan qoyatosh rasmlar, petrogliflar topilganligi bunga dalil bo‘la oladi. Qishloqning toponomikasi haqida aniq ma‘lumotlar yo‘q. Qishloqning asosiy aholisi tojik millatiga mansubligini inobatga olsak, bu toponim tojikcha atamaning o‘zgarib ketgan ko‘rinishi ekanligini tahmin qilish mumkin.

**Shampan qishlog‘i** Parkentdan 16 km janubi sharqda Sanganaksoy av Ugamsoyning oralig‘ida joylashgan. Qishloqqa 1947-yili asos solingan. Aholining so‘zlariga ko‘ra, urushdan keyin Shampan qishlog‘i hududida 35-40 xonadon yashagan. Rus hukumati esa bu hududga 1949-1950-yillarda qrim tatarlarini ko‘chirib olib kelgan. Yerlarining hosildorligi, uzumchilik yaxshi rivojlanganligi sababli Shampan qishlog‘iga Fransiyaning Shampan viloyatiga qiyosan shu nom berilgan. 1955-yilda Shampan qishlog‘ida vino ishlab chiqaruvchi zavod ishga tushirilgan.

**Bo‘ston qishloq fuqarolar yig‘ini.** Uning tarkibiga Bo‘ston, Achchisoy, Juduriq, Chavkanchak, Chotqol va Qirg‘izovul qishloqlari kiradi.

**Bo‘ston qishlog‘i** XX asrning 80-yillarida tashkil etilgan qishloq bo‘lib, uning nomi shu hududdagi shirkat xo‘jaligi nomidan olingan. Tuman markazidan 10 km shimoli g‘arbda joylashgan. Toponomikasi mahalliy

aholining soʻzlariga koʻra, bahavo, chiroyli tabiatga ega boʻlganligi bois, bogʻ-u boʻstonga qiyoslangani bois shunday nomlangan. Aholisining asosiy qismini qozoqlar tashkil qiladi

**Juduriq qishlogʻi** Parkentdan 21 km shimoli-gʻarbda joylashgan. Qishloq shu nomli soy boʻyida joylashgan. Koʻpgina soylar hudud nomidan kelib chiqqanligini inobatga olsak, Juduriq soyi Juduriq qishlogʻi nomidan kelib chiqqanligini tahmin qilsak boʻladi.

Juduriq nomi yuzuruq yaʼni shu nomdagi urugʻjoylashganligi sababidan Yuzuruq deb nomlanganligi va keyinchalik soʻzlashuvda oʻzgarib ketganligi haqida ham maʼlumotlar bor.

**Achchisoy qishlogʻi** Parkentdan 14 km shimoli gʻarbda shu nomli soy sohilida joylashgan. Soy va qishloq nomi nima sababdan va qachon aynan shu nom bilan atalganligi haqida aniq maʼlumotlar mavjud emas.

**Chavkanchak qishlogʻi** Parkentdan 22 km shimoli gʻarbda joylashgan. Aholi ancha siyrak holatda yashaydi. 2006-yil maʼlumotlariga koʻra 580 kishi istiqomat qiladi. Bu qishloqda qozoq, qirgʻiz millatiga mansub aholi yashaydi.

Qishloqning toponimkasi haqida aniq maʼlumotlar yoʻq. Qirgʻiz yoki qozoqcha soʻz buzib talaffuz qilingan variant ekanligi tahmin qilinadi.

**Qirgʻizovul qishlogʻi** Parkentdan 13 km shimoli gʻarbda joylashgan. Aholisining asosiy qismini qirgʻizlar tashkil etgan. Qishloqning nomlanishiga ham shu asos qilib olingan.

**Zarkent qishlogʻi.** Parkentdan 12 km janubi-sharqda joylashgan. Zarkent eng qadimiy qishloqlardan biri hisoblanadi. Olimlarning fikrlariga koʻra, Zarkent hududida 2800-3000 yillar ilgaridan odamlar yashab kelishgan. Zarkent nomining toponomikasi toʻgʻrisida bir qancha qarashlar bor. Mahalliy aholining soʻzlariga koʻra, Zarkent hududida avvaldan mashhur va mohir zararlar koʻp boʻlgan va “Zargarlar qishlogʻi” degan maʼnoda Zarkent deb atalgan. Yana baʼzi fikrlarga koʻra Zarkent togʻ qoʻynidagi qishloq maʼnosini beradi.

Arab geografiaridan Muqaddasiy (X asr) oʻz asarida Shosh viloyatida tilga olingan Zarankent qishlogʻini V.V. Bartold hozirgi Zarkent boʻlishi mumkin,

degan. etimologiyasi ma'lum. Agar zar "oltin" bo'lsa, zer (zerin) "quyi", "etak" degani. Zerinkat "pastdagi qishloq", "tog' etagidagi qishloq" ma'nosini anglatadi<sup>11</sup>.

Zarkentdagi Qalai Bolo shahristonida qazilmalar ishlari olib borish paytida, madaniy qatlamlari ning eng quyi qismning ostida kutilmaganda qadimiy madaniy qatlam aniqlangan. Qatlamda miloddan avvalgi VIII-VI asrlarda, ya'ni "Burgalik" madaniyati davriga xos sopol buyumlar topilgan<sup>12</sup>. Shuningdek, Bartold arab sayyohlarining asarlarida kelgan Zarankatu qishlog'i hozirgi Zarkent qishlog'i bo'lishi mumkin ekanligini tahmin qiladi.

**Nomdanak qishlog'i.** Parkentdan 16 km janubda joylashgan. Bu qishloq ham eng qadimiy qishloqlardan biri hisoblanadi. Bir qancha o'rta asr geograflari asarlarida qishloq nomi qayd etilgan. Eskitepa deb nomlangan shahriston qoldiqlari topilgan. Nomdanak toponimikasining lug'aviy ma'nosi "Mashhur" Sernam qishloq" ma'nosini beradi.

Nomdanak qishlog'i dastlab Muqaddasiy asarida Namudonak tarzida tilga olingan. To'g'risi, Namdonak bo'lsa, namdon – "sernam", "sersuv", "suv to'planadigan joy" ma'nolarini ifodalab, -ak toponim yasovchi qo'shimcha hisoblanadi<sup>13</sup>.

Mahalliy aholining fikrlariga ko'ra esa qishloq nomi o'rikzor o'rnida paydo bolgan qishloq degan ma'noni bildiradi. O'rikzor esa bir danakdan ko'karib chiqib katta o'rikzorga aylangan , shuning uchun Nomidanak bo'lib, keyin bu nom Nomdanakka aylanib ketgan

**Parkent fuqarolar yig'ini.** Uning tarkibiga Boyqozon, Gulbog', Navbahor qo'rg'onlari va Samsarak qishlog'i kiradi.

**Boyqozon qo'rg'oni** Parkentning g'arbida joylashgan bo'lib, tuman markazidan 2 km uzoqlikda joylashgan. Boyqozon toponomikasi avvaldan bu

---

<sup>11</sup> S.QORAYEV TOPONIMIKA O'zbekiston faylasuflari milliy jamiyati nashriyoti Toshkent — 2006. 137-bet

<sup>12</sup> Хусомиддинов. М. Шерматов. Паркент тумани. "O'qituvchi" nashriyoti T-2006. 47-bet.

<sup>13</sup> O'ZBEKISTON JOY NOMLARINING IZOHLI LUG'ATI Birinchi nashr TOSHKENT 2022. 275-bet.

hududda qozoni doim qaynab turadigan, o'ziga to'q insonlar yashagani uchun shunday deb nomlangan deb tahmin qilinadi.

**Gulbog' qishlog'i** Parkentdan 6 km g'arbda joylashgan. Parkent Toahkent magistral yo'lining chap tomonida joylashgan. Gulbog'ning xalq tilida qolib ketgan nomi Kultepa. Mahalliy aholining so'zlariga ko'ra, avvallari bu yerlarda tutzorlar b'lgan, chunki ko'pchilik pilla boqib, tutni shoxlari shu yerlardan kesib ketilgan. Keyinchalik Parkentda pillachilik to'xtatildi, bu yerlar sovxoz hisobidan o'zlashtirila boshlaydi va tutzorlar yoqib yuboriladi. Katta trassa yo'ldan o'tib ketayotgan odamga kultepaga o'xshab korinadi. Shuning uchun Kultepa degan nom mahalliy aholi so'zlashuvida qolib ketgan. Bu yerga "Gulbog'" jamoa xo'jaligining markaziy qo'rg'oni qurilishi munosabati bilan qishloq Gulbog' nomini olgan.

**Navbahor qishlog'i** XX asrning 80-yillarida yangi yerlarni o'zlashtirish hisobiga tashkil etilgan. Toponomikasining lug'aviy ma'nosi "yangi bo'ston" degan ma'noni anglatishi tahmin qilinadi.

**Samsarak qishlog'i** Parkentdan 6 km janubda joylashgan. Bu qishloqning asosiy aholisi qozoq va o'zbeklardan iborat. O'rta asrlarda qishloq nomi Somsiyrak deb atalgan. Keyinchalik bu nom Samsarak sifatida o'zgarib ketgan. Samsarak qishlog'ida Otaxontepa nomi bilan ataluvchi arxeologik yodgorlik mavjud.

**So'qoq qishloq fuqorolar yig'ini.** Parkentdan 18 km janubi sharqda joylashgan. Qishloq o'zining so'lim tabiati, toza havosi bilan sayyohlarning e'tibor markazida. O'rta asrlarda ham bu hududda zodagon qatlamlarning yozgi dam olish maskanlari borligi qayd qilingan. Ba'zi tarixchilarning fikrlariga ko'ra Qang' davlatining yozgi poytaxti ham shu hududda joylashgan bo'lishi mumkin. Qishloqning toponomikasi haqida turlicha qarashlar mavjud. Mahalliy aholining fikriga ko'ra, So'qoq so'zi turkiycha – "yolg'iz oyoq yo'l", arab tilida esa "kiyik yo'li" degan ma'noni anglatadi.

So'qoq — "suvi oq" yoki "so'qmoq" so'zlaridan olingan degan fikr bor. Tarixiy manbalarda So'xoq shaklida tilga olingan. Farg'ona vodiysidagi So'x

daryosi atrofidan ko‘chib kelganlar qishloqni So‘xak “Kichik So‘x” deb atagan bo‘lishlari mumkin<sup>14</sup>.

Turk tilidagi so‘qmoq yo‘l sokak ham bu qishloq nomiga asos bo‘lgan bo‘lishi mumkin degan fikrlar mavjud.

**Hisorak fuqorolar yig‘ini.** Uning tarkibiga Hisorak, Kumushkon qishloqlari kiradi.

**Hisorak qishlog‘i** Parkentdan 8-10 km shimoli sharqda Parkentsoyning o‘ng sohilida joylashgan. Qishloqning so‘lim tabiati sababli turistik salohiyati yuqori. “Quyosh” majmuasi, “Sumcha” dam olish uyi maskanlariga tashrif buyuruvchilar ko‘pchilikni tashkil qiladi. Hisorak ancha qadimiy qishloq bo‘lib, tarixchi olimlarning fikricha, Hisorak aholisining dastlabki ajdodlari o‘z vaqtida Hisor tog‘lari etaklaridan ko‘chib kelgan bo‘lishi mumkin. Zarkent aholisi asosan tojik millatiga mansub bo‘lganligi uchun bu qishloqdagilarni “Hisoraki” - Hisordan ko‘chib kelganlar deb atashgan. Shu zaylda qishloqning toponimi vujudga kelgan.

Ammo mahalliy aholi tilida boshqacha rivoyatlar bor. O‘z davrida bu qishloqda yozgi saroylar, qarorgohlar bo‘lgan va podshohlar bu yerga eng sara, go‘zal qizlarni saroyda to‘plashgan degan fikrlar mavjud. Shunday keyin qizlar to‘planuvchi saroy, ya‘ni – “Qizsaroy” nomidan Hisorak nomi kelib chiqqan deb ham hisoblashadi.

**Kumushkon qishlog‘i** Parkentdan 18 km shimoli sharqda Parkentsoyning o‘ng sohilida joylashgan qishloq. Tumanning yirik turizm markazlaridan biri. Qishloqning nomi o‘rta asrlarda kumush qazib olinganligi sababidan shunday nom olganligi tahmin qilinadi. Kumushkonning nomi o‘rta asrlardagi Ko‘hisim koniga ham qiyoslanadi.

Ko‘hisim – o‘rta asrlarda Shosh viloyatida qayd qilingan kon. Dastlab, arab geograflari Ibn Xudodbex, Istaxriy, Muqaddasiy asarlarida tilga olingan. Ko‘hisim – “kumush tog‘” demakdir. V.Bartold Ko‘hisim Ohangarondan janubda, Obliq qishlog‘i ro‘parasida bo‘lgan, deydi. Konning Shosh viloyatida

<sup>14</sup> S.QORAYEV TOPONIMIKA O‘zbekiston faylasuflari milliy jamiyati nashriyoti Toshkent — 2006. 142-bet.

bo'lganini hisobga olsak, u Parkent tumanidagi Kumushkon toponimining o'zginasidir. Haqiqatan ham, ruda jinslari orasida kumush bor<sup>15</sup>.

Yana bir fikrga ko'ra esa Kumushkondan kumush emas qo'rg'oshin qazib olingan. Qo'rgoshinning tarkibida kumush rudasi ko'pligi uchun shu nomning olgan bo'lishi kerak deb ham tahmin qilinadi.

**Changi qishlog'i** Parkentdan 4-6 km shimoli sharqda, Parkentsoy sohillarida joylashgan. Changi qishlog'i ham qadimiy qishloq hisoblanib, uning ham nomlanishi to'g'risida turlicha qarashlar mavjud. Ba'zilar Changi so'ziforschada "jangchi" degan ma'noni anglatadi, deb hisoblaydi. Jang mashg'ulotlari shu qishloqda o'tkazilib turilganligi va shuning uchun Jangchilar qishlog'i deb atalgan deb hisoblashadi. Yana bor fikrga ko'ra esa Changi aholisi azaldan chorvador xalq bo'lganligi uchun, mol haydash jarayonida ko'tarilgan changlar uzoqdan ko'rinishi ham uning toponomikasiga sabab bo'lgan bo'lishi mumkin.

**Qoraqalpoq qishlog'i.** Parkentning g'arbida joylashgan qishloq bo'lib, Toshkent Parkent magistral yo'lining har ikki tomonida joylashgan. G'arb tarafidan Yuqori Chirchiq tumani bilan chegaralangan.

Qishloqning tashkil topishi Chor Rossiyasi istilosi davriga to'g'ri keladi. Mahalliy aholining so'zlariga ko'ra bu yerda o'sha davrda Toshkent guberniyasining pristavi yashagan va u qora rangli qalpoq kiyib yurgani uchun u yashagan qishloq Qoraqalpoq nomi bila atalgan bo'lishi mumkin. Ammo hududda o'z miqdorda qoraqalpoq millatiga mansub kishilar yashagani uchun shu nomning olgan bo'lishi ham ehtimoldan holi emas. Bugungi kungacha bu qishloqning nomini asosli izohlovchi ma'lumotlar mavjud emas.

## **XULOSA**

Tadqiqot natijalari shuni ko'rsatadiki, Parkent tumani hududida joylashgan qishloqlar nomlari bejiz tanlanmagan bo'lib, ularning har biri chuqur ma'no va tarixiy asosga ega. Qator qishloq nomlari – masalan, "Hisorak", "Changi", "Kumushkon", "Soy", "So'qoq" kabi atamalar mahalliy aholi tomonidan

---

<sup>15</sup>O'ZBEKISTON JOY NOMLARINING IZOHLI LUG'ATI Birinchi nashr TOSHKENT -2022 220-bet

o'zining tabiiy muhitga, geografik xususiyatlarga, tarixiy voqealarga yoki muqaddas joylarga bo'lgan munosabati asosida shakllangan. Bu esa Parkent hududi toponimiyasining boy, xilma-xil va chuqur tarixiy ildizlarga ega ekanini ko'rsatadi.

Bu toponimik xususiyatlarni aniqlash va ilmiy asoslash hududiy identifikatsiyani mustahkamlash, mahalliy aholining o'z tarixiga, yeriga bo'lgan hurmatini oshirish, hamda hududiy rejalashtirish va turistik obyektlar xaritasini yaratishda katta yordam beradi. Shuningdek, bu tadqiqot natijalarini maktab geografiya ta'limida ham foydalanilishi mumkin.

Kelgusida bu yo'nalishda yana chuqurroq statistik va GAT asosida raqamlashtirilgan toponimik xaritalarni ishlab chiqish, tarixiy hujjatlar asosida joy nomlarining o'zgarish bosqichlarini tahlil qilish, va ularni zamonaviy raqamli platformalarda aks ettirish tavsiya qilinadi.

#### **Foydalanilgan adabiyotlar ro'yxati**

1. S. Xusomiddinov, M. Shermatov."Parkent tumani" "O'qituvchi" Toshkent- 2006
2. S.QORAYEV TOPONIMIKA O'zbekiston faylasuflari milliy jamiyati nashriyoti Toshkent — 2006. 142-bet.
3. O'ZBEKISTON JOY NOMLARINING IZOHLI LUG'ATI Birinchi nashr TOSHKENT -2022 220-bet
4. Yo'ldosheva Xumora Ergash qizi. "Parkent tumani iqtisodiyotiga umumiy geografik tavsif" (2022): GEOGRAFIK TADQIQOTLAR: INNOVATSION G'OYALAR VA RIVOJLANISH ISTIQBOLLARI
5. Kh. E. Yoldosheva. Climate of parkent district. JOURNAL OF GEOGRAPHY AND NATURAL RESOURCES SJIF 2022: 6.037.
6. Javohir M. Giyazov. Toshkent viloyati parkent tumanining tabiiy geografik o'rni va uning turistik (ziyorat turizmi) jihatlari. ORIENTAL JOURNAL OF GEOGRAPHY SJIF 2022: 5.646.

7. Ўзбекистон миллий энциклопедияси. «Ўзбекистон миллий энциклопедияси» Давлат илмий нашриёти. Тошкент. 2002
8. Ш. Т. Якубжонова, and Н. С. Уринова. "ПАРКЕНТ ТУМАНИДА ЭКО-АГРОТУРИЗМНИ РИВОЖЛАНТИРИШ ИСТИҚБОЛЛАРИ" Academic research in educational sciences, vol. 2, no. 3, 2021, pp. 824-829. doi:10.24411/2181-1385-2021-00473
9. Parkent tumanidagi “Parkentsoy soylarining suvni muhofaza qilish zonalari hamda sohil bo‘yi mintaqalarini belgilash natijalarini tasdiqlash to‘g‘risida”gi Parkent tumani hokimi qarori. 2023 - yil 10 - mart 108-10-141-Q/23 Parkent tumani hokimligi
10. Ризаева Р.«Паркент канали хавзасида сув ресурсларидан мукамал фойдаланиш ва уларни муҳофаза қилиш шаклий лойиҳасини асослаш». Тошкент ирригация ва мелиорация институти. Тошкент-2015 й.
11. Parkent tuman Kadastr agentligi ma'lumotlari